

ILMIY-TA'LIMiy AXBOROT MANBALARI VA ULARNING TIZIMLI TAHLILI

R. Jumanazarova

Sh. Karimov

Qarshi davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ilmiy-ta'limiy axborot manbalari tizimli ravishda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Ilmiy-ta'limiy, axborot, kutubxona, noshirlik, xizmat ko'rsatish, resurs, taqriz, litsenziya, foydalanuvchi.

Аннотация: В данной статье систематически анализируются источники научной и учебной информации.

Ключевые слова: научно-образовательный, информационный, библиотека, издательство, сервис, ресурс, обзор, лицензия, пользователь.

Annotation: In this article, the sources of scientific and educational information are systematically analyzed.

Keywords: Scientific and educational, information, library, publishing, service, resource, review, license, user.

Kutubxona-axborot faoliyati bugungi kunda rivojlanayotgan sohalar qatoridan o'rin egallaydi. Bu holat sohaga qaratilayotgan alohida e'tibor va e'tirof desak mubolag'a bo'lmaydi, albatta. Axborot-kutubxona muassasalarida, ta'lim jarayonida talabalar hamda foydalanuvchilarning ilmiy-ta'limiy resurslarga bo'lgan talablarining yuqoriligi, kutubxona-axborot faoliyatida hamda foydalanuvchilar o'rtasida ilmiy-ta'limiy resurslarni taqdim qiluvchi eng yirik kompaniyalarni tahlil qilinishi maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda ilmiy-ta'limiy resurslar oliy ta'lim muassasari faoliyatida eng muhim o'rinni egallaydi.

Ilmiy-ta'limiy axborot resurslari – litsenziyalangan hamda tegishli tashkilotlarning taqrizidan o'tkazilgan resurslar hisoblanadi. Ushbu turdagi axborot manbalariga jurnallar, maqolalar, kitoblar, multimedia va boshqalar kiritiladi. Ilmiy-ta'limiy axborot resurslari muhim qiymatga ega bo'lgan intellektual manbadir. Odatda har bir hujjat ma'lumotlar bazasi, jurnallar, tegishli to'plamlarga kiritilishidan avval yetakchi olimlar, mutaxassislar tomonidan saralashdan o'tadi. Bu hujjatlar tizimlashtiriladi, kataloglashtiriladi va operativ foydalanishni ta'minlash maqsadida ilmiy-ta'limiy axborotlarning ma'lumot bazalariga joylashtiriladi. Ilmiy-ta'limiy resurslarning end asosiy foydalanuvchilari ilmiy xodimlar, o'qituvchilar, magistrlar va talabalar tashkil etadi. Ta'lim tizimini yetarlicha axborot manbalari bilan boyitish dolzarb mavzu sanaladi. Bu borda jahonning jamiyat tomonidan tan olingan eng yirik nashriyotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Texnika va texnologiyalarning ham jadal sur'atlarda rivojlanib borishi, axborot oqimining, manbalarining kun sayin o'sib borayotganligiga sabab bo'lmoqda. Bu borada Axborot-kutubxona markazlari, Axborot-resurs markazlari hamda Respublika maxsus kutubxonalari foydalanuvchilar uchun ko'plab ilmiy-ta'limiy resurslarni yetkazib berishda faol hisoblanadi. Respublika Axborot-kutubxona markazlari hamda rivojlangan mamlakatlarning axborot manbalarni taqdim qiluvchi yirik nashriyotlari ishtirokida o'tkazilayotgan seminarlar, O'zbekistonlik kutubxon foydalanuvchilarning chet elda yaratilgan resurslardan ham foydalanish imkonini bermoqda. Ko'plab kutubxonalarda elektron ilmiy ta'limiy resurslarni yaratish, tashkil qilish hamda ulardan foydalanish bo'yicha muammolarni o'rganish va ularni yechimini toppish bo'yicha xalqaro seminarlar o'tkazilmoqda. Axborot-kutubxona markazlarida ilmiy-ta'limiy resurslarni fondga shakllantirish uchun quyidagilar o'rinlidir. Elektron kutubxonaning axborot-kutubxona fondi quyidagilar hisobiga to'ldiriladi:

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

1-MART

ANDIJON, 2024

-Xarid qilish (kitob savdosi tashkilotlari, nashriyotlar va elektron nashrlar va hujjatlarni yetkazib beruvchi tashkilotlar, shu jumladan tijorat tashkilotlari orqali hamda axborot resurslariga ega bo'lgan xususiy shaxslardan);

-Obuna bo'lish (davriy nashrlarni tarqatadigan tashkilotlar orqali);

-Ayirboshlash (xalqaro va kutubxonalararo kitob ayirboshlash yo'li bilan);

-Bepul olish, shu jumladan nashrlar va boshqa axborot-kutubxona resurslarini hadya sifatida qabul qilish (o'zining elektron axborot-kutubxona resurslari, ta'lim muassasalarining fakultetlari, kafedralari va boshqa bo'linmalari materiallari) shular jumlasidandir.

Elektron kutubxonaning axborot-kutubxona fondi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-axborot-kutubxona muassasasi fondlarida mavjud bo'lgan barcha axborot-kutubxona resurslari to'g'risida axborot mavjud bo'lgan elektron katalog;

-elektron nashrlar va hujjatlarni yetkazib beruvchi turli tashkilotlardan olingan elektron nashrlar va hujjatlar;

-axborot-kutubxona ma'lumotlar bazasi;

-darsliklar va o'quv qo'llanmalari;

-davriy nashrlar;

-bosma nashrlarning elektron versiyalari, shu jumladan axborot-kutubxona muassasasi nashrlarining elektron versiyalari;

-axborot-kutubxona resurslarini elektron shaklga o'tkazish jarayonida axborot-kutubxona muassasasi tomonidan tashkil etiladigan ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-ta'lim, madaniy-tarixiy va o'quv xususiyatiga ega bo'lgan elektron axborot-kutubxona resurslari.

Jahon elektron ilmiy ta'limiy resurslar uchun yurtimizda talab va ehtiyojning yuqoriligi, yurtimizda yoshlarning chet davlat tillarini puxta o'zlashtirayotganliklaridan darak beradi. Dunyoning yetakchi ma'lumot bazalariga ega bo'lgan nashriyot kompaniyalariga a'zo bo'lish jarayoni belgilangan miqdordagi katta so'mmani tashkil qilsada, ushbu jarayonni tashkil qilish muhim sanaladi. "Noshirlik faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonunida ham aynan xalqaro noshirlik to'g'risida tushunchalar keltiriladi. Ushbu qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2021-yil 4-martda qabul qilingan, Senat tomonidan 2021-yil 23-aprelda ma'qullangan. Qonunning 6-bobiga ko'ra, 6-bob. Noshirlik faoliyati sohasidagi xalqaro hamkorlik

26-modda. Xalqaro hamkorlik

Noshirlik faoliyati sohasidagi xalqaro hamkorlik xalqaro shartnomalar va O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi asosida amalga oshiriladi.

Noshirlik faoliyati sohasidagi xalqaro hamkorlikning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat: -yangi texnologiyalarni joriy etish orqali nashriyot-matbaa majmuasining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, buning uchun chet el investitsiyalarini jalb qilish;

-mamlakatda ishlab chiqarilgan noshirlik mahsulotini xorijda tarqatish tarmog'ini va tegishlicha chet el noshirlik mahsulotini O'zbekiston Respublikasida tarqatish tarmog'ini yaratish;

-noshirlik faoliyati sohasida birgalikda kadrlarni tayyorlashni, qayta tayyorlashni va ularning malakasini oshirishni tashkil etish hamda o'zaro tajriba almashish;

-noshirlik faoliyati sohasida xalqaro konferensiyalar, seminarlar, simpoziumlar, yarmarkalar (ko'rgazmalar) va boshqa tadbirlar o'tkazish.

27-modda. Chet el investorlari bilan hamkorlik qilish.

Noshirlik faoliyati subyektlari chet el investorlari bilan birgalikda noshirlik-matbaa korxonalarini va kitob savdosi korxonalarini tashkil etishi mumkin.

(O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi [Qonuni](#).)

28-modda. Noshirlik mahsulotini olib chiqish va olib kirish.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

1-MART

ANDIJON, 2024

Noshirlik mahsulotini O‘zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish, shuningdek boshqa davlatlardan O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga va qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

Mamlakatimizda Axborot-kutubxona muassasalari fondlarini tizimli tarzda, yangi adabiyotlar, ilmiy- ta’limiy resurslar, boshqa turdagi zarur materiallar bilan ta’minlashning markazlashtirilgan tizimini joriy etish bo‘yicha ko‘plab faoliyatlar amalga oshirilmoqda. Ma’naviy ehtiyojni qondirish borasida kitobning o‘rni beqiyos. Hoh u darslik, badiiy turdagi kitob yoki ilmiy-ta’limiy resursning boshqa turlari bo‘ladimi, kitobxonni ilimga, hayotga, yaxshi inson bo‘lishga o‘rgatadi.

Ayni vaqtda o‘tkazilayotgan kuzatish va tahlillar natijasida Axborot-kutubxona muassasalarida ilmiy –ta’limiy resurslar sonini ko‘paytirish lozimligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, xalqimiz, avvalo, yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, joylarga, ta’lim muassasalariga vaqtida va maqbul narxlarda yetkazish, milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, farzandlarimizda bolalikdan boshlab kitob, jumladan, elektron kitob o‘qish ko‘nikmasini shakllantirish, jamiyatimizda mutolaa madaniyatini yuksaltirish bilan bog‘liq muhim masalalarni hal etish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, noshirlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish, yurtimizda sog‘lom raqobatga asoslangan bosma va elektron kitoblar bozorini shakllantirishni bugun hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Shu ma’noda Prezidentimizning “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks choratadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarori mamlakatimizda noshirlik faoliyatini yangi bosqichga olib chiqadi, adabiyotimizning rivojini ta’minlaydi, kelajak avlod tarbiyasiga mustahkam poydevor vazifasini o‘tovchi muhim dasturilamal bo‘ladi.

Alexander Street – san’at, gumanitar va ijtimoiy fanlar bo‘yicha 2000-yil may oyida tuzilgan keng masshtabli raqamli kolleksiyalarning ilmiy ma’lumotlar bazasi. Noshir ma’lum bir fanlar bo‘yicha ko‘rsatkichlarga kirgan olimlar havola qiladigan manzillar bo‘yicha ma’lumotlar bazasini shakllantiradi. Alexander Street tarix, adabiyot, musiqa, san’at, drama, kinemotografiya, dinshunoslik, sotsiologiya va psixologiya kabi fanlarni kontenti bo‘yicha foydalanuvchilarni eng kerakli va foydali axborotlarni tez va oson topishlarini kafolatlaydi.

BioOne- BioOne axborot agregatorining to‘liq matnli, ma’lumotlar bazasidir. O‘zida biologiya, ekologiya, geografiya, atrof-muhit haqidagi fanlarga oid 113 turli ilmiy jamiyatlar va tadqiqot institutlarining 155 nafar jurnallarini o‘z ichiga oladi.

BioOne – biologik va ekologik fanlar bo‘yicha retsenziyaga ega tadqiqotlardan foydalanishga imkon yaratish borasida ilmiy hamjamiyatlar, nashriyotlar, kutubxonalarning global, notijorat hamkorligi.

Elsevier – ilmiy-texnik, meditsina adabiyotlarining dunyodagi eng yirik noshirlaridan biri bo‘lib, fan va ta’limdagi axborot yechimlarining provayderi hisoblanadi. [1880-yili Amsterdamda \(Niderland\)](#) tashkil etilgan bo‘lib, Buyuk Britaniya, AQSH, Braziliya va boshqa mamlakatlarda filiallarga ega.

Bugungi kunda «Elsevier» ilmiy-axborot nashriyotchilik industriyasida o‘zining muhim o‘rniga ega. Ilmiy jurnallar, kitoblar, referativ va boshqa bazalardagi materiallarni chop etish borasida boy tajribaga ega bo‘lib, nashriyotda doimo ilmiy va meditsina tadqiqotlarining barcha jabhalarini qo‘llab-quvvatlash borasida doimiy izlanishlar olib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raxmatullayev M.A., Ganiyeva B.I. Jahon axborot resurslari: darslik / M.A.Raxmatullayev, B.I. Ganiyeva; Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi; Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU.-Toshkent: Aloqachi, 2019,- 192b.

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

1-MART

ANDIJON, 2024

2. Ganiyeva B.I. Axborot-kutubxona katalogi va fondi: o'quv qo'llanma/ B.I. Ganiyeva; Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2017. — 212 b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to'g'risida (Xalq so'zi 2017 yil, 20 aprel).
4. “Axborotlashtirish to'g'risida”gi O'zbekiston respublikasining qonuni. 2003-yil, 11-dekabr, 560-II-son.